

Comparative Analysis Of The Phenomenon Of Polysemy In English And Uzbekistan

O'ktamova Moxigul Khamidullo-kizi

Senior lecturer, Faculty of Foreign Languages, FarSU

Baxodirova Nozimakhon Jamoliddin kizi

Student, Faculty of Foreign Languages, Fergana State University

Annotation

This article examines the phenomenon of lexical polysemy in English and Uzbek in a comparative perspective and analyzes it in terms of its general and specific features. The study explores the semantic structure of words, their primary and derived meanings, as well as the development and transfer of meaning. It also analyzes the interrelation of polysemous meanings, their semantic differentiation, and lexical-semantic relations. The results of the comparative analysis contribute to a better understanding of the lexical characteristics of the English and Uzbek languages. Through illustrative examples, the article demonstrates the role of polysemy in language structure, identifies differences in meaning across various contexts, and reveals semantic connections within the lexical system of words.

Keywords: Polysemy phenomenon, lexical system, semantic differentiation, contextual meaning, semantic extension, phraseological units, central and peripheral meanings, distinction from homonymy, metaphorical meanings, lexical richness.

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida leksik polisemiya hodisasi qiyosiy tarzda o'rganiladi va umumiy va xususiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada so'zning semantik tuzilishi, asosiy va hosila ma'nolari, ularning ma'no rivoji va ma'no ko'chishi ko'rib chiqiladi hamda polisemiya ma'nolarining o'zaro bog'liqligi, semantik farqlanishi va leksik-semantik munosabatlar tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil natijalari ingliz va o'zbek tillarining leksik xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Unda misollar orqali polisemiya hodisasining til tuzilishida qanday rol o'ynashi ko'rsatilgan, turli kontekstlarda ma'nolarning farqi aniqlangan va so'zlarning leksik ba'zasidagi semantik bog'liqlik ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Polisemiya hodisasi, leksik tizim, semantik farqlanish, kontekstual ma'no, semantik kengayish, frazeologik birliklar, markaziy va periferik ma'nolar, homonimiya bilan farqlash, metaforik ma'nolar, leksik boylik.

Polisemiya hodisasi tilshunoslikda muhim leksik semantik masalalardan biri hisoblanib, bir so'zning bir nechta o'zaro bog'liq ma'nolarga ega bo'lishini ifodalaydi. Ushbu hodisa tilning rivojlanishi, lug'at boyligining kengayishi va nutq jarayonida ma'no aniqlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. So'z ma'nosining kontekstga bog'liq holda turlicha namoyon bo'lishi polisemiyaning asosiy belgisi hisoblanadi. Qiyosiy tilshunoslikda polisemiyaning o'rganish tillarining leksik tizimidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Ingliz va o'zbek tillarida polisemiya hodisasining qiyosiy tahlili so'zlarning semantik tuzilishi, ma'no rivoji hamda ma'no ko'chishi jarayonlarini yoritishga xizmat qiladi.

Polisemiya bir leksemaning o'zaro semantik jihatdan bog'liq bir nechta ma'nolarga ega bo'lish hodisasidir. Ingliz va o'zbek tillarida polisemiya keng tarqalgan hodisa bo'lib, u har ikki tilning leksik tizimida muhim o'rin tutadi. Biroq ular ikki tilda shakllanish mexanizmi, ma'no kengayishi va qo'llanish xususiyatlari jihatidan ayrim farqlarga ega.

Ingliz tilshunosligida polisemiya nazariy jihatdan chuqur ishlab chiqilgan. Masalan, J. Layonz o'zining "Tilshunoslik semantikasi: Kirish" asarida polisemiya va homonimiyani farqlash mezonlarini aniqlab beradi. Lyonsning fikriga ko'ra polisemiya – bu bir leksemaning semantik jihatdan bog'liq bo'lgan ma'molar majmuidir. U ma'nolar o'rtasidagi tarixiy va konseptual

aloqani asosiy mezon sifatida ko'rsatadi. Lyons polisemiya til tizimining tabiiy rivojlanish mahsuli ekanini ta'kidlaydi.¹

Shuningdek, D. A. Kruuz "Til ma'nosi: Semantika va pragmatikaga kirish" asarida polisemiya strukturasi ichki semantic tarmoqlanish sifatida izohlaydi. Crusega ko'ra, polisemiya markaziy ma'no va undan hosil bo'lgan periferik ma'nolar tizimidan iborat. U ma'nolar o'rtasidagi darjali bog'liqlikni ko'rsatib polisemiya tizimli xarakterga ega ekanini asoslaydi.²

Kognitiv yondashuv vakili E. Sviitser esa "Etimologiyadan Pragmatikaga" asarida polisemiya metaforik tafakkur natijasi ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, konkret jismoniy tajriba asosida abstract ma'nolar shakllanadi.³

O'zbek tilshunosligida polisemiya asosan leksikologiya va semasiologiya doirasida o'rganilgan. Masalan, Sh. Rahmatullayev o'zining "O'zbek tili leksikologiyasi" kitobida polisemiyaning so'zning asosiy ma'nosidan hosil bo'lgan qo'shimcha ma'nolar sifatida tushuntiradi. U so'zning ichki resurslari orqali semantik kengayish yuzaga kelishini ta'kidlaydi.⁴

Shuningdek, A. Nurmonov o'zining "Tilshunoslik nazariyasi" kitobida polisemiyaning bir leksemaning o'zaro semantik jihatdan bog'langan bir nechta ma'nolari majmui sifatida izohlaydi. U polisemiya omonimiyadan farq qilishini, ya'ni polisemik so'z ma'nolari o'zaro bog'langan holda mavjud bo'lishini ta'kidlaydi. Olim polisemiya tilning semantik tizimi bilan bog'liq hodisa ekanligini va so'z ma'nolarining kengayishi til taraqqiyoti natijasida yuzaga kelishini ko'rsatadi.⁵

Ch. Q. Qodirov esa o'zining "O'zbek tili leksikologiyasi" asarida polisemiya fenomenini so'zning bir nechta semantik jihatdan bog'langan ma'nolar to'plami sifatida tushuntiradi. U polisemik va omonimik so'zlarni ajratib ko'rsatadi, ya'ni polisemik so'zlarning barcha ma'nolari bir-biriga bog'liq bo'lib, mustaqil emas. Qodirov polisemiyaning tilning leksik va semantik tuzilishi bilan bevosita bog'liqligini hamda so'z ma'nolarining til taraqqiyoti va kontekst orqali rivojlanishini ta'kidlaydi.⁶

Rus tilshunosligida ham polisemiya masalasi ham keng o'rganilgan va leksik semantikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu hodisa rus tilshunoslari tomonidan so'z ma'nosining rivojlanishi va til tizimidagi semantik munosabatlar bilan bog'liq holda tadqiq qilingan. Rus olimlaridan biri bo'lgan Y. Apresyan o'zining "Leksik semantika: tilning sinonimik vositalari" asarida polisemiya masalasiga alohida e'tibor qaratadi. U ushbu asarida bir so'zning bir nechta ma'noga ega bo'lishi tasodifiy hodisa emasligini, balki ularning o'zaro semantik bog'lanish asosida shakllanishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, polisemik ma'nolar til tizimida ma'lum qonuniyatlar asosida rivojlanadi va bu hodisa tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.⁷

Shuningdek, tilshunos olim E. Paducheva o'zining "Semantik tadqiqotlar" asarida til ma'nosi, semantik struktura va kontekst masalalarini batafsil tahlil qiladi. Olim ushbu asarida polisemiya hodisasini so'z ma'nolarining kontekstga bog'liq holda namoyon bo'lishi bilan izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, polisemik so'zlarning ma'nolari nutq jarayonida turli kontekstlar orqali aniqlanadi va shu orqali tilning semantik imkoniyatlari kengayadi.⁸

V. Vinogradov esa o'zining "Rus tili. So'z haqidagi grammatik ta'limot" asarida so'z ma'nosi, leksik tizim va ko'p ma'nolilik hodisasini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Olim ushbu asarida polisemiya tilning tabiiy rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan lingvistik hodisa ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bir so'zning bir nechta ma'noga ega bo'lishi tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi va leksik tizimning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.⁹

¹ Lyons J. Linguistic Semantics: An Introduction. - Cambridge: Cambridge University Press, 1995. - 376 p.

² Alan Cruse D. Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. - Oxford University Press, 2000.

³ Sweetser E. From Etymology to Pragmatics: Metaphorical and cultural aspects of polysemy. - Cambridge University Press, 1990.

⁴ Rahmatullayev Sh. O'zbek tili leksikologiyasi. - Toshkent: Universitet nashriyoti, 2010.

⁵ Nurmonov A. Tilshunoslik nazariyasi. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. - 240 b

⁶ Qodirov Ch. Q. O'zbek tili leksikologiyasi. - Toshkent: Fan nashriyoti, 2010. - 312 b.

⁷ Апресян Ю. Д. Лексическая семантика: Синонимические средства языка. - М.: Наука, 1974. - 367 с.

⁸ Падучева Е. В. Семантические исследования. - М.: Языки русской культуры, 1996. - 464 с.

⁹ Виноградов В. В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. - М.: Высшая школа, 1972. - 614 с.

Endi misollar orqali polisemiya hodisasini ingliz va o'zbek tillari kesimida ko'rib chiqamiz. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, polisemiya bir so'zning bir nechta o'zaro bog'liq ma'nolarga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi va har bir tilning leksik tizimida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ingliz tilida bu hodisa ko'pincha frazeologik birliklar, kontekst va morfologik o'zgartirishlar orqali yuzaga keladi. Masalan, "light" so'zi kontekstdan kelib chiqqan holda turli ma'nolarga ega bo'ladi: "light"- yorug'lik - The room was full of light(Xona yorug'lik bilan to'la edi); "light" - yengil - This suitcase is very light(Bu sumka juda yengil); "light" - kam quvvatli / yumshoq - He took a light approach to the problem(U muammoga yumshoq / engil usul bilan yondashdi). Bu misollar polisemiyaning asosiy xususiyatlarini ko'rsatadi: har bir ma'no o'zaro semantik jihatdan bog'langan, ammo kontekst orqali aniq tanlanadi.

O'zbek tilida ham polisemiya hodisasi so'zning bir nechta ma'noga ega bo'lishi bilan namoyon bo'ladi. Masalan, "ko'z" so'zi turli kontekstlarda turlicha ma'nolarga ega: inson organi sifatida — "Ko'zlarim toliqdi", manbadan chiqadigan joy sifatida — "Buloqning ko'zi ochildi". Ushbu misollar ko'rsatadiki, so'zning asosiy va semantik ma'nolari o'zaro semantic bog'liq bo'lib, ma'no kontekstga qarab aniqlanadi. Shu tarzda polisemiya hodisasi o'zbek tilining leksik tizimida keng tarqalgan va so'z boyligini oshiradi.

Ingliz va o'zbek tillarida polisemiya hodisasi o'xshash bo'lsa-da, ularning namoyon bo'lishi va ishlatilish xususiyatlari biroz farq qiladi. Ingliz tilida polisemiya ko'pincha frazeologik birliklar, morfologik o'zgartirishlar va kontekst orqali yuzaga keladi; masalan, "light" so'zi yorug'lik, yengil yoki kam quvvatli ma'nolarga ega bo'lib, har bir ma'no kontekstga bog'liq. O'zbek tilida esa polisemiya hodisasi ko'proq kundalik nutq va badiiy matnlarda, so'zning asosiy va semantik ma'nolari orqali namoyon bo'ladi; masalan, "ko'z" so'zi inson organi, manbadan chiqadigan joy yoki harflar orasidagi teshik ma'nolarini oladi. Shu tarzda, ingliz tilida polisemiya strukturalari ko'proq sistematik va frazeologik kontekstga bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida u so'zning tabiiy leksik boyligi va semantik kengayish orqali namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'rganilgan materiallar va misollar asosida ingliz va o'zbek tillarida polisemiya hodisasi tilning leksik va semantik tuzilishida muhim rol o'ynashi ko'rinadi. Ingliz tilida polisemiya ko'proq frazeologik birliklar, morfologik o'zgarishlar va kontekstual vaziyatlar orqali yuzaga keladi, o'zbek tilida esa so'zning tabiiy leksik resurslari, asosiy va semantik ma'nolari orqali namoyon bo'ladi. Har ikkala tilshunoslik yondashuvida polisemiya kontekstga bog'liqlik, ma'nolar o'rtasidagi semantik aloqani aniqlash va leksik boyligni oshirish imkonini beradi. Shu orqali polisemiya hodisasi tillarning leksik tizimini chuqur anglash, so'zlarning semantik bog'lanishini tushunish va leksik-semantik tadqiqotlarda asosiy ahamiyatga ega ekanligi namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Lyons, J. (1995). *Linguistic Semantics: An Introduction*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Cruse, D. A. (2000). *Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press.
- Sweetser, E. (1990). *From Etymology to Pragmatics: Metaphorical and Cultural Aspects of Semantic Structure*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Shavkatovna, S. D., Karimovna, I. M., & O'ktamovna, X. M. (2021). Linguocultural features of the symbols. *Elementary Education Online*, 20(4), 2993-2993.
- Khusenova, M. U. (2024). Lexical-Semantic Features of Astronomical Terminology in the English Language. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, 2(11), 279-282.
- Shavkatovna, S. D., & G'ulomovna, Q. M. (2021). Linguocultural Features of Symbol and Metaphor. *International Journal on Integrated Education*, 4(10), 172-176.
- Saidov, S. (2024). *Linguo-cultural studies and corpus linguistics: interdisciplinarity*. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 18.
- Saidov, S. (2023). Benefits of extroversion in second language acquisition. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 27, 27.

- Saidov, S. (2023). The Application of Corpus Linguistics in Language Learning and Teaching. *INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS*, 2(6), 4-8.
- Rakhimovna, R. D. (2024). DEVELOPMENT OF LITERARY PSYCHOLOGISM IN UZBEK LITERATURE. *Conferencea*, 69–72.
- Radjabova, D. (2022). IDENTIFYING AND DESCRIBING ERRORS IN LANGUAGE LEARNING. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz)*, 10 (10).
- Dildora, R. (2022). The interpretation of urbanonyms in the novel “jenny gerhardt” by american writer theodore dreiser. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 196-199.
- Xaydarova, L. (2022). THE IMPORTANCE OF THE USAGE OF INTERACTIVE METHODS WHILE DEVELOPING READING SKILLS OF YOUNG LEARNERS. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8(8).
- Khaydarova, L. (2023). Effective and modern methods of teaching listening skills. *Scientific progress*, 4(3), 36-42.
- Khaydarova, L. (2022). Teaching English Grammar Through Interactive Methods. Zenodo (CERN European Organization for Nuclear Research).
- Olimova, D. Z., & Turaeva, Z. A. (2022). The peculiar complexity of translating uzbek classical poetry into English.
- Khamraeva, G., & Olimova, D. (2017). BENEFITS OF USING ROLE PLAYS IN TEACHING LANGUAGES. *Научная дискуссия: инновации в современном мире*, (4), 97-101.
- Zokirova, N. (2024). THE CONCEPT OF “LINGUISTIC PICTURE OF THE WORLD” IN TRANSLATION. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 48(48).
- Zokirova, N. (2021). TARJIMA DISKURSIDA ADEKVATLIKKA ERISHISHNING PRAGMATIK VA KOGNITIV XUSUSIYATLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).
- Zokirova, N. (2021). Badiiy she'riy tarjimada g'ayrilisoniy jihatlarni saqlashda ekvivalentlik va adekvatlik tamoyillari: Tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz)*, 6(6).
- Mehmonova, Y. C. (2025). Terminological Collocations and Their Analysis. *American Journal of Education and Evaluation Studies*, 2(1), 172-179.
- Mehmonova, Y. C. Typology of Collocations in the English and Uzbek Languages.
- FAYZIYEV, B. (2024). JK ROULINGNING “GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH” ASARIDAGI TO‘QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O‘ZBEK TILLARIGA TARJIMASI. *SCIENCEPROBLEMS. UZ Учредители: ООО “Scienceproblems team”*, 3(12/2).
- Bahodir, F. (2023). METAPHORS AND THEIR FEATURES OF TRANSLATION BASED ON THE MATERIAL OF THE WORKS OF JK ROWLING" HARRY POTTER. *UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 1(7), 12-17.
- Valiyeva, N. (2023). The classification of chemical terminology in modern English and Uzbek linguistics. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 35, 35.
- Salikhova, N. N. (2022). Interjections in the Contexts of Uzbek and English Languages. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.
- Nurullayevna, S. N. (2025, June). SEMANTIC EXTENSION AND FIGURATIVE USE OF MEDICAL TERMS (ON THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES). In *CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY (Vol. 1, No. 3, pp. 142-144)*.
- Nurullayevna, S. N., & Nuriddinova, M. Z. (2023). THE HISTORY OF SONNET AND ITS TYPES. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 269.
- Rahmatullayev, Sh. (2005). O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent: Fan.
- Nurmonov, A. (2008). Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent: O‘zbekiston.